

**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTİNİNİNG  
QARORI**

**TOSHKENT SHAHRIDA VEBSTER UNIVERSİTETİNİNİNG TA'LIM DASTURLARINI  
AMALGA OSHIRISH MARKAZINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliv ta'limni rivojlantirish, ta'lim faoliyatiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratishga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ta'lim xizmatlarining zamonaviy rivojlanish tendensiyasi tarmoqqa xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalari ilg'or tajribasini yanada joriy etish, ular bilan yaqin sheriklik munosabatlarini mustahkamlash, ta'lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarurati mavjudligidan dalolat bermoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, oliv ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasiga** muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Webster universitetining (AQSh) (keyingi o'rnlarda — Universitet) Toshkent shahrida Webster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazini (keyingi o'rnlarda — Markaz) tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

Markaz oliv ta'lim muassasasi — yuridik shaxs shaklidagi O'zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadi, alohida mol-mulk, mustaqil balansga ega, tasarrufidagi pul mablag'lari va mol-mulk bilan o'z majburiyatlari bo'yicha javobgar hisoblanadi;

Markaz O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Universitet (keyingi o'rnlarda — ta'sischilar) tomonidan ta'sis etiladi;

Markaz ta'sischilar bilan kelishilgan holda ta'limning bakalavriat bosqichi asosiy yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga muvofiq mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shu jumladan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi;

Markazda o'qitish kunduzgi ta'lim shaklida, to'lov-kontrakt asosida, ingliz tilida, jumladan elektron ta'lim va masofaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda Universitet tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalar va dasturlar asosida amalga oshiriladi;

Markazda to'lov-kontrakt asosida ta'lim berish narxi miqdori ta'sischilar bilan kelishilgan holda belgilanadi;

Markazda ta'lim faoliyati 2019/2020 o'quv yilidan boshlab amalga oshiriladi;

Markazga abituriyentlar qabuli va bitiruvchilar attestatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda Universitet tomonidan belgilangan talab, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

Markaz bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasida oliv ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan Universitetning belgilangan namunadagi diplomi beriladi.

3. Markazning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik, tabiiy fanlar va pedagogika sohalarida xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlash;

iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim oluvchilarining innovatsion g'oyalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb etish;

respublika oliv ta'lim tizimiga zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv jarayonlarini joriy qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, ochiq axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishga ko'maklashish;

pedagog kadrlarning professional mahorati darajasi va sifatini og‘ishmay oshirib borish, Markazning professor-o‘qituvchi xodimlarini xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliv ta’lim muassasalarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashi;

ta’lim va ilm-fanning uzluksizligi va izchilligi tamoyili, shuningdek, jahon ta’limi va ilmiy hamjamiyatga uyg‘un integratsiyalashuvi asosida mutaxassis va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

ta’lim va ilmiy sohalarda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan uzoq muddatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash.

#### 4. Ma’lumot uchun qabul qilinsinki, Universitet:

ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini, ilm-fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini tatbiq etishni ta’minalashga ko‘maklashadi;

Markaz mutaxassislari malakasini oshirish va professor-o‘qituvchi xodimlarini qayta tayyorlashni tashkil qiladi;

Markaz kutubxona fondini shakllantirish va uni zamonaviy o‘quv, o‘quv-uslubiy va ilmiy-texnik adabiyotlar bilan boyitishga ko‘maklashadi;

O‘zbekiston Respublikasining boshqa oliv ta’lim muassasalari bilan tuzilgan o‘zaro bitimlar asosida qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashni amalga oshiradi;

Universitetning malakali professor-o‘qituvchilarini Markazda ta’lim berish va o‘quv jarayonini tashkil etish uchun jalb qiladi.

#### 5. Belgilab qo‘yilsinki:

a) Markazga ta’lim oluvchilarni qabul qilish kvotalari manfaatdor vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tegishli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda ta’sischilarning qo‘shma qaroriga binoan tasdiqlanadi;

b) Markaz faoliyatini moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

to‘lov-kontrakt asosida talabalarni o‘qitishdan tushgan mablag‘lar;

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining asoslangan buyurtmalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlari grantlari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar;

v) Markazni tashkil etish, uning moddiy-texnika va ta’lim bazasini shakllantirish, shuningdek, ta’mirlash-tiklash, bino va inshootlarni zarur mebel, inventar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter va boshqa tashkiliy texnikalar bilan jihozlash bo‘yicha tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

g) Markaz professor-o‘qituvchilarini, shu jumladan xorijdan jalb qilinadigan xodimlarning mehnatiga haq to‘lash va xizmat safari xarajatlari Universitet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

#### 6. Universitetga:

kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbolidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda ta’limning bakalavriat bosqichi assosiy yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochishga;

professor-o‘qituvchi xodimlar, shuningdek, pedagogik va ilmiy ish olib borishga jalb etiladigan boshqa shaxslar mehnati, yashashi hamda transport xarajatlari uchun ularga belgilangan tariflar bo‘yicha to‘lov amalga oshirishga ruxsat berilsin.

#### 7. Quyidagilar:

Toshkent shahridagi Webster universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazini tashkil etish bo‘yicha tashkiliy komissiya tarkibi (keyingi o‘rinlarda — Tashkiliy komissiya) **1- ilovaga** muvofiq;

Toshkent shahridagi Webster universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazida ta’limning bakalavriat bosqichi asosiy yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro‘yxati [2- ilovaga](#) muvofiq ma’qullansin.

8. Tashkiliy komissiya (A. Abduhakimov):

a) 2019-yil 1-avgustga qadar Markazning bino va inshootlari rekonstruksiya qilinishi, shuningdek, Markaz professor-o‘qituvchilari uchun yashash joylari tayyorlanishini;

b) 2019-yil 31-avgustga qadar Markazni zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari, kompyuter va tashkiliy texnika, o‘qitishning texnik vositalari, adabiyotlar, multimedia mahsulotlari, inventar, mebel va boshqa moddiy-texnik vositalar bilan jihozlashni;

v) 2020-yil 31-avgustga qadar O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari doirasida ajratiladigan mablag‘lar hisobidan:

Markazda o‘quv auditoriyalari, ta’lim oluvchilar uchun turar joylar va professor-o‘qituvchi xodimlarining vaqtincha yashashi uchun mehmonxona tipidagi binolar nazarda tutilgan 400 o‘rinli o‘quv korpusining rekonstruksiya qilinishi va jihozlanishini;

Markazni joylashtirish uchun mo‘ljallangan binolar kompleksi hududida joylashgan oshxona o‘rnida trenajyor zali uchun yerto‘laga ega bo‘lgan sport zali qurilishini ta’milasın.

9. Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 13-uyda joylashgan Toshkent arxitektura-qurilish institutining bino va inshootlari hamda unga tutash hudud operativ boshqaruvi huquqi bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga o‘tkazilsin hamda keyinchalik bepul foydalanish uchun belgilangan tartibda Markazga berilsin.

10. Markazning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish hamda jihozlash bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qoshidagi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi — buyurtmachi;

“Grand stroy proekt” MChJ — bosh loyiha tashkiloti etib belgilansin.

Buyurtmachiga, istisno tariqasida, tanlov savdolarisiz, eng maqbul takliflarni tanlab olish orqali Markazning bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish va jihozlash bo‘yicha bosh pudratchini belgilashga ruxsat berilsin.

11. Markazga ikkita, shu jumladan bitta shaxsiy biriktirilgan va bitta navbatchi yengil avtotransport vositasini saqlashga limit ajratilsin.

12. 2022-yil 1-aprelga qadar:

Markaz barcha turdagи soliqlar to‘lashdan;

Universitet O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan ham doimiy muassasa orqali, ham to‘lov manbaidan olingan daromadlar bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘idan;

belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha Markazni jihozlash va faoliyatini ta’milash uchun olib kiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan o‘quv va ilmiy laboratoriya uskunalarli, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar, o‘quv va ilmiy-uslubiy adabiyotlar, inventar va moddiy-texnika resurslari, shuningdek, avtotransport vositalari bojxona to‘lovlaridan (bojxona yig‘imlaridan tashqari) ozod etilsin.

13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ikki oy muddatda Markazning ustavi va tuzilmasi ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini, shuningdek, belgilangan tartibda uning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’milasın.

14. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyurtmanomalariga ko‘ra mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan xorijiy professor-o‘qituvchilar va ma’muriy xodimlar, shuningdek, ularning oila a’zolari hamda Markazga qabul qilingan chet ellik talabalar uchun kirish vizalarini konsullik va boshqa yig‘imlarni undirmagan holda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta’milasın.

15. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlар vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyurtmanomalariga ko‘ra Markazning xorijiy professor-o‘qituvchilari va ma’muriy xodimlariga, shuningdek, ularning oila a’zolari hamda Markazga qabul qilingan chet ellik talabalarga davlat bojini undirmagan holda ko‘p martalik vizalar berilishi va muddati uzaytirilishini, shuningdek, ularning yashash joyida vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazilishi hamda muddati uzaytirilishini belgilangan tartibda ta’milasın.

16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjalari ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirlitsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimov zimmasiga yuklansin.

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 20-mart,  
PQ-4245-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagি PQ-4245-son qaroriga  
1-ILOVA

### **Toshkent shahridagi Webster universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazini tashkil etish bo‘yicha tashkiliy komissiya**

#### **TARKIBI**

- |               |  |
|---------------|--|
| A.A.          | — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari, Tashkiliy komissiya raisi  |
| Abduxakimov   |  |
| I.U. Madjidov | — O‘zbekiston Respublikasi oliv va o‘rta maxsus ta’lim vaziri  |
| B.A.          | — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vaziri  |
| Xodjayev      |  |
| Sh.M.         | — O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri                                   |
| Sadikov       |  |
| A.X.          | — O‘zbekiston Respublikasi qurilish vaziri   |
| To‘xtayev     |  |
| M.B. Azimov   | — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi raisi  |
| J.A.          | — Toshkent shahar hokimi   |
| Artikxodjayev |  |
| A.D.          | — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi v.b.   |
| Xadjayev      |  |
| B.B.          | — O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri o‘rinbosari   |
| Ashrafxanov   |  |
| D.X. Axatov   | — O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari  |
| Dj. Shuster   | — Webster universiteti (AQSh) katta prorektori (kelishuv asosida)  |
| K.S. Rizayev  | — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ijtimoiy rivojlantirish masalalari kotibiyati mudiri, Tashkiliy komissiya kotibi |

Izoh: Tashkiliy komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimiga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagи PQ-4245-son qaroriga  
2-ILOVA

### **Toshkent shahridagi Webster universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazida ta’limning bakalavriat bosqichi asosiy yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari**

#### **RO‘YXATI**

T/r	<b>Ta’limning bakalavriat bosqichi asosiy yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining nomlanishi</b>
<b>I. Ta’limning bakalavriat bosqichi asosiy yo‘nalishlari</b>	
1.	Boshqaruvning axborot tizimlari (fan bakalavri)
2.	Interfaol raqamli media (san’at bakalavri)

3.	Mediakommunikatsiyalar (san'at bakalavri)
4.	Grafik dizayn (san'at bakalavri)
5.	Reklama va marketing kommunikatsiyalari (san'at bakalavri)
6.	Informatika (fan bakalavri)
7.	Tadbirkorlik (san'at bakalavri)
8.	Iqtisodiyot (san'at bakalavri)
9.	Xalqaro munosabatlar (san'at bakalavri): xalqaro iqtisodiyotga e'tibor qaratiladi
10.	Buxgalteriya hisobi (fan bakalavri)
11.	Yevropa tadqiqotlari (san'at bakalavri)
12.	Global jurnalistika (san'at bakalavri)
13.	Jamoatchilik bilan aloqlar (san'at bakalavri)
14.	Kino, televideniye va video ishlab chiqarilishi (san'at bakalavri)

## **II. Magistratura mutaxassisliklari**

1.	Axborot texnologiyalar boshqaruvi (san'at magistri)
2.	Kommunikatsiyalar boshqaruvi (san'at magistri)
3.	Biznes boshqaruvi (biznesni boshqarish bo'yicha magistr)
4.	Biznes va tashkiliy xavfsizlik boshqaruvi (san'at magistri)
5.	Savdo boshqaruvi (san'at magistri)
6.	Mediakommunikatsiyalar (san'at magistri)
7.	Reklama va marketing kommunikatsiyalari (san'at magistri)
8.	Ta'lim va innovatsiyalar (san'at magistri)
9.	Ta'lim texnologiyalari (san'at magistri)
10.	Amaliy pedagogik psixologiya (san'at magistri)
11.	STEM (san'at magistri)
12.	Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish (san'at magistri)
13.	Menejment va liderlik (san'at magistri)
14.	Ekologiya menejmenti (san'at magistri)
15.	Sog'lijni saqlash boshqaruvi (san'at magistri)
16.	Sud hisobi (fan magistri)

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.03.2019-y., 07/19/4245/2798-son)*